

UO‘K(UDC, УДК): 82-821

“MIDDLEMARCH” VA “ANNA KARENINA” ASARLARI QIYOSIY TAHLILI⁵**Xallieva Gulnoz Iskandarovna***O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
jahon adabiyoti kafedrası professori,
filologiya fanlari doktori
Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: gulnoz7410@mail.ru**<https://orcid.org/0000-0001-5013-0792>***Shahobova Sitora Baxromovna***Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: sitorashahobova28@gmail.com**<https://orcid.org/0009-0007-4339-511X>**Orcid ID: 0009-0004-1079-8754***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Lev Tolstoyning “Anna Karenina” hamda Jorj Eliotning “Middlemarch” romanlari o‘zaro qiyosiy tahlil qilinadi. Ikkala asar ham XIX asr realizmining yuksak namunasi sifatida, insoniy munosabatlar, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab aloqalarni badiiy tarzda yoritib beradi. “Middlemarch” romanida ingliz jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hayoti, turli tabaqa vakillarining orzu-intilishlari hamda ma’naviy izlanishlari ko‘rsatilsa, “Anna Karenina” asarida rus jamiyatidagi axloqiy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar va muhabbatning fojiaiy oqibatlari tasvirlanadi. Shunga qaramay, har ikkala roman ham ayol obrazi orqali jamiyatdagi cheklovlarni ochib beradi: Doroti va Anna timsollari o‘z davri ayollari erkinligining cheklanishini ifodalaydi. Farqli jihat shundaki, Eliot ijtimoiy islohot va ma’rifatparvarlik ruhiga urg‘u berar ekan, Tolstoy insoniy ehtirolar va axloqiy mas’uliyat to‘qnashuvini markazga qo‘yadi. Maqolada ushbu o‘xshash va farqli jihatlar tahlil qilinib, romanning universal g‘oyalari hamda milliy xususiyatlari ochib beriladi. Ushbu ikki realizm yo‘nalishida yozilgan asarlar bir zamon va turli makonda yozilgan bo‘lsa-da, bir qancha o‘xshash voqea hodisalar va qahramonlarga egadir. Asosan, romanlardagi jamiyat qonun - qoidalari, shaxsiy va ruhiy psixologik kechinmalar, ayollar obrazlaridagi farqli va o‘xshashliklar ifodalangan.

KALIT SO‘ZLAR

O‘xshash, farq,
Middlemarch, Anna
Karenina, jamiyat,
syujet, ayol, obraz,
realizm, qahramon,
shaxsiyat, oila, xiyonat.

Received: September 7, 2025**Accepted:** September 14, 2025**Available online:** November 16, 2025⁵ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Xallieva G., Shahobova S. “Middlemarch” va “Anna Karenina” asarlari qiyosiy tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 65-77.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE WORKS “MIDDLEMARCH” AND “ANNA KARENINA”

Khallieva Gulnoz Iskandarovna

*Uzbek State World Languages University,
Professor of the Department of World Literature,
Doctor of Philological Sciences,
Tashkent, Uzbekistan*

E-mail: gulnoz7410@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0001-5013-0792>

Shahobova Sitora Bakhromovna

*Teacher at Tashkent State University of Oriental Studies,
independent researcher of
Uzbekistan State World Languages University,
Tashkent, Uzbekistan*

E-mail: sitorashaxobova28@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-4339-511X>

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of Leo Tolstoy's "Anna Karenina" and George Eliot's "Middlemarch." Both works, as exemplary specimens of 19th-century realism, artistically illuminate human relationships and the complex connections between society and the individual. While "Middlemarch" portrays the socio-political life of English society, along with the aspirations and spiritual quests of various social classes, "Anna Karenina" depicts the moral values of Russian society, family relations, and the tragic consequences of love. Nevertheless, both novels reveal societal constraints through their female protagonists: the characters of Dorothea and Anna embody the limitations placed on women's freedom during their respective eras. The key difference lies in their focus: Eliot emphasizes the spirit of social reform and enlightenment, while Tolstoy centers on the clash between human passions and moral responsibility. This article analyzes these similarities and differences, uncovering the novels' universal themes and national characteristics. Although these two realistic works were written in the same era but in different settings, they share several similar events and characters. The novels primarily express the laws and norms of society, personal and psychological experiences, and the differences and similarities in the portrayal of women.

KEY WORDS

Similarity, difference, Middlemarch, Anna Karenina, society, plot, woman, image, realism, hero, personality, family, betrayal.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ «МИДЛМАРЧ» И «АННА КАРЕНИНА»

Халлиева Гулноз Искандаровна

доктор филологических наук,

профессор кафедры тировой литературы,

Узбекский государственный университет мировых языков,

Ташкент, Узбекистан

E-mail: gulnoz7410@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0001-5013-0792>

Шахובהва Ситора Бахромовна

преподаватель Ташкентского государственного

университета востоковедения,

независимый соискатель Узбекского

государственного университета мировых языков,

Ташкент, Узбекистан

E-mail: sitorashaxobova28@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-4339-511X>

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В данной статье проводится сравнительный анализ романов Льва Толстого «Анна Каренина» и Джордж Элиот «Мидлмарч». Оба произведения, являясь выдающимися образцами реализма XIX века, художественно освещают человеческие отношения, сложные связи между обществом и личностью. Если в романе «Мидлмарч» отражены социально-политическая жизнь английского общества, мечты и стремления представителей различных социальных слоев, а также духовные искания героев, то в «Анне Карениной» изображены нравственные ценности русского общества, семейные отношения и трагические последствия запретной любви. Тем не менее, авторы обоих романов показывают существующие общественные ограничения через женские образы: Доротея и Анна олицетворяют ограничение свободы женщин своего времени. Различие заключается в том, что Элиот делает акцент на духе социальных реформ и просвещении, в то время как Толстой сосредоточивается на столкновении человеческих страстей и нравственной ответственности. В статье анализируются эти сходства и различия, раскрываются универсальные идеи и национальные особенности романов. Несмотря на то, что оба произведения, написанные в соответствии с принципами реалистического направления, созданы в одну эпоху, но в разных странах, изображаемые в них события и герои имеют ряд сходств. В данных романах показаны общественные нормы и правила, личные переживания и психологические конфликты, яркие женские образы, при анализе которых можно выделить как различия, так и сходства.	Сходство, различие, Мидлмарч, Анна Каренина, общество, сюжет, женщина, образ, реализм, герой, личность, семья, предательство.

KIRISH

XIX asr realizm adabiyoti jahon romanchiligining eng yuksak bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda yozilgan asarlar nafaqat milliy adabiyotlar doirasida, balki butun dunyo miqyosida inson ruhiyati, jamiyatdagi o'zgarishlar va axloqiy qadriyatlarning badiiy ifodasiga aylangan. George Eliotning **Middlemarch** (1871–72) romani va Lev Tolstoyning **Anna Karenina** (1877) asari ana shunday realistik romanlarning eng yorqin na'munalaridan sanaladi san'atining cho'qqisi deya baholagan. Buni tanqidchi va buyuk ingliz yozuvchisi Leavisning fikrlaridan ham anglash mumkin. Uning fikricha: *“Middlemarch is one of the few English novels written for grown-up people”* (Leavis, 1948, 19). Bundan tashqari o'sha davrning buyuk mutaffakir olim va yozuvchilari ushbu asarni iliq kutib olishgan. Kitobxonlar esa alohida olqishlagan. Bundan shuni anglash mumkinki, Eliot asarlari, shu jumladan, “Middlemarch” romanining badiiy xususiyati alohida tahsinga loyiqdir. Xuddi shuningdek, Tolstoy romanining badiiy salohiyati haqida ham deyarli butun dunyo olimlari ijobiy qarashlar bergan. Adabiyotshunos Henry James ta'kidlashicha: *“Anna Karenina is a perfect work of art”* (James, 1887, 241). Bu bilan yozuvchi Anna Karenina asarining bebaho san'at asariga qiyoslagan. Bundan shuni anglash mumkinki, har ikki roman o'z davrida realizmning yuksak badiiy imkoniyatlarini namoyon etganini ko'rsatib adabiyot olamida yaxshi qabul qilingan va bugungi jahon adabiyotida o'chmas iz qoldiradigan darajada mashhurlikka ega bo'lgan.

Ikkala takrorlanmas romanga e'tibor berar ekanmiz, asarlar jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlarni, ayol obrazi va uning ijtimoiy cheklovlar oldidagi kurashini yoritganini guvohi bo'lamiz. Eliot Dorothea Brooke obrazi orqali ingliz jamiyatida ayolning idealistik orzulari va real hayot to'qnashuvini ko'rsatsa, Tolstoy Anna obrazida shaxsiy ehtiros va jamiyat me'yorlari qarama-qarshiligini tasvirlaydi. Shu bois olim D. Carroll Eliot asarini “roman of social change” deb ta'riflasi (Carroll, 1980, p. 77), R. Freeborn Tolstoy asarini “mohiyatan jamiyatning axloqiy portreti” sifatida izohlaydi (Freeborn, 1982, 112). Mazkur maqolada “Middlemarch” va Anna Karenina romanlarining o'xshash va farqli jihatlari ilmiy

tahlil qilishga e'tibor qaratdim. Xususan, realizm an'anasining o'ziga xos talqini, ayol obrazi orqali jamiyatning aks ettirilishi hamda mualliflarning milliy ijtimoiy-madaniy kontekstdan kelib chiqqan yondashuvlari qiyosiy o'rganiladi.

ASOSIY QISM

Insoniyat borki, dunyoda mavjud bo'lgan jamiki narsalarni, jonzotlarni mavhumlikni, dinni, irq va davlatlardagi siyosiy va ijtimoiy bo'lgan voqea-hodisalarni bir-biri bilan taqqoslaydi. Shuning uchun bo'lsa kerakki, insonlarning yaxshilikka chorlaydigan adabiyot fani ichida yana bir katta maktab ya'ni "qiyosiy adabiyotshunoslik" fani adabiyotshunoslar tomonidan yaratilgandir. Qiyosiy adabiyotshunoslik shunday fanki, u butun dunyodagi buyuk olimlarning yaratgan bebaho asarlarini, asar jarayonlarini, voqea-hodisalarni, qahramonlarning tashqi va ichki kechinmalarini bir-birlari bilan qiyoslaydi, farqli va o'xshash tomonlarni tahlil qiladi. Shu qatorda nafaqat buyuk adabiyotshunoslar balki oddiy adabiyot olamiga havasmand kitobxonlar ham sevimli asarlarini beixtiyor boshqa bir asarlar bilan taqqoslaydilar. Adabiyotshunoslar asarlarni bir-biri bilan qiyoslayotganda odatda ularning bir davrda yoki bir makonda, turli makon va bir zamondan yoki bo'lmasam bir zamon va turli makonda voqea hodisalarni sodir bo'lganligi qarab tahlil qilishadi va aynan o'zlari tanlagan asarlarini qiyoslab ularning o'xshash va kamchiliklarini kitobxonlarga talqin qiladilar (Jo'raqulov U., 2025). Bu esa o'z navbatida kitobxonlarning to'g'ri tahlil qilishlari uchun zamin yaratadi.

Buyuk ingliz Viktoriya davri namoyandasi Jorj Eliotning butun dunyoga mashhur bo'lgan takrorlanmas asari "Middlemarch" hamda Rus realizmi asoschisi buyuk romannavis Lev Tolstoyning "Anna Karenina" asarlarini o'qigan har qanday adabiyot ixlosmandlari beixtiyor kitobning yozilish janridan boshlab uning kichkina qahramonlarigacha va turli xil voqea-hodisalarni qiyoslamoqchi bo'ladi va men ham aynan shunday adabiyot fani va unda yaratilgan va yaratilayotgan buyuk asarlar ma'shuqasi sifatida bu ikki yozuvchining asarlarini, ulardagi o'xshash va farqli holatlarni tahlil qildim. Ushbu ikki roman nafaqat o'z davrining durdona asarlari hisoblanadi, balki bugungi kun jahon adabiyotining yorqin va betakror asarlaridandir. Ikki asarda deyarli bir zamonda ammo turli makonlarda sodir bo'lgan

voqea hodisalar tasvirlangan. Garchi makonlar ayro bo'lsa-da, yozuvchilar o'z asarlari bilan realizm janrini rivojlanishiga asos solganlar. Jorj Eliotning "Middlemarch" asari 1871-1872 yillarda yozilgan bo'lib, asar voqealari Angliyaning kichik xayoliy shaharchasi Middlemarch aholisi hayotini tasvirlaydi. Asarda yozuvchi o'z navbatida har xil turdagi mavzularni ya'ni o'sha davr muammolarini qahramonlar bilan ochib bergan. Masalan, sevgi va nikoh borasidagi tushunchalarni va ingliz jamiyating oilaviy muammolarini bir nechta qahramonlar Doreti va ruhoniylar Rozabon, Lidgeyt va uning ayoli turmush tarzlari bilan ochib bergan bo'lsa, doktor Lidgeyt orqali o'sha zamon ilm-fani va tibbiyot rivojini ochib bergan. Romandagi pul va mulkning jamiyatdagi o'rni deyarli har bir qahramonning obrazida namoyon bo'lgan. Bundan tashqari 1832-yilda Angliya islohotlar davri fonida esa ijtimoiy va siyosiy islohotlarni qahramonlar odatiy hayot turmush tarzi bilan ko'rsatib bera olgan. Oddiy qilib aytganda, "Middlemarch" romani oddiy xalqning ichki faqat o'zlarigina tushunadigan dunyolarini jamiyat va tarixiy o'zgarishlar fonida ochib bergan buyuk realistik asardir. Shu bilan birga, asarda sevgi va nikoh, ilm-fan va tibbiyot, jamiyatdagi moliyaviy tengsizlik, shuningdek, 1832-yildagi siyosiy islohotlar fonida ijtimoiy hayot muammolari ochib beriladi.

Yozuvchi va tanqidchi Byattning fikricha, Eliotning "Middlemarch" asari faqat Viktoriya davrining eng buyuk romani emas, balki kattalar uchun yozilgan ingliz romanlaridan biridir" (Byatt, 1991, 17) degan ta'kidni Eliotning adabiyoti nafaqat zamonasining ijtimoiy muammolarini, balki inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ham o'zida aks ettirganini ko'rsatadi.

Eliot o'z romanida o'quvchini ko'ngilochar syujet bilan emas, balki jamiyatdagi haqiqiy masalalar bilan yuzlashtiradi: nikoh, diniy ishonch, ilmiy taraqqiyot, ijtimoiy islohotlar va insonning shaxsiy tanlovlari. Bu jihat uni ko'plab zamondosh yozuvchilardan ajratib turadi. F. R. Leavis ham Eliotning ijodiy merosini yuksak baholab, "Middlemarch"ni ingliz romanchiligining eng buyugi "The Great Tradition"i doirasida ko'radi (Leavis, 1948, 19).

Henry Jamesning 1887-yildagi bahosi "Middlemarch"ning badiiy-estetik qimmatini haqida chuqur tasavvur beradi. U asarni "ingliz romanining ulkan falsafiy

qismi” deya atar ekan, Eliot yaratgan matnning oddiy hayotiy manzaralarni tasvirlashdan ko‘ra kengroq, inson tafakkuri va ruhiy izlanishlariga qaratilganini alohida ta’kidlaydi (James, 1887, 246). Haqiqatan ham, “Middlemarch” nafaqat Viktoriya davrining ijtimoiy hayotini tasvirlaydi, balki insoniy mavjudotning ichki dunyosi, ong va vijdonning murakkab jarayonlarini ham ochib beradi.

Eliotning romani ko‘pincha “hayot ensiklopediyasi” deb ta’riflanadi, chunki unda jamiyat, siyosat, din va shaxsiy orzular uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Jamesning “inson ongining doimiy izlanishi” iborasi Doroti Bruk, Tertius Lidgeyt va boshqa qahramonlarning ichki kechinmalarida yaqqol ko‘rinadi. Ularning har biri shaxsiy baxt, ma’naviy mukammallik va jamiyatdagi o‘rnini izlar ekan, muallif ularning ruhiy kurashlarini falsafiy darajaga ko‘taradi.

Shunday qilib, Jamesning ta’kidlashicha, “Middlemarch” oddiy hayotiy tafsilotlar majmuasi emas, balki “inson tafakkurining dramatik manzarasi”dir. Roman o‘quvchini tashqi voqealardan ko‘ra, ichki jarayonlarga e’tibor qaratishga chorlaydi. Bu jihati bilan Eliotning asari XIX asr ingliz adabiyotida psixologik va falsafiy realizmning eng yorqin namunalaridan biri sifatida baholanadi. Demak, ushbu fikrlarga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, Eliot o‘z davrida adabiyot orqali “katta mas’uliyat”ni zimmasiga olgan yozuvchi edi. U roman janrini faqatgina badiiy ko‘ngilochar shakl emas, balki jamiyat va shaxs ruhiyatini falsafiy tahlil qiluvchi vosita darajasiga olib chiqdi.

O‘z navbatida, Tolstoyning Anna Kareninasi insoniy ehtiroslar va axloqiy mas’uliyat to‘qnashuvini markazga qo‘ygan eng yirik asarlardan biridir. Roman voqealari orqali muallif sevgi, sadoqat, ijtimoiy odob-axloq va shaxsiy erkinlik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Isaiah Berlin Tolstoy ijodini tahlil qilar ekan, uni “umumiy qonunlarga emas, balki insoniy hayotning alohida haqiqatlariga qiziqqan yozuvchi” sifatida ta’riflaydi (Isaiah Berlin, 1978, 23). Bu fikr Tolstoy uslubining mohiyatini juda aniq ifodalaydi.

Haqiqatan ham, “Anna Karenina”da biz abstrakt g‘oyalar yoki nazariy qarashlar emas, balki odamlarning kundalik hayotidagi real kechinmalar va qarorlarning taqdirga ta’sirini ko‘ramiz. Anna va Vronskiy o‘rtasidagi munosabatlar

ham aynan shunday “alohida haqiqat”ning yorqin ifodasidir. Anna jamiyat me’yorlariga zid ravishda o’z shaxsiy baxtini izlaydi, biroq shu yo’lda axloqiy mas’uliyat va oilaviy burch bilan keskin to’qnashadi. Vronskiy bilan bo’lgan munosabatlari nafaqat shaxsiy ehtirosning kuchini, balki bu ehtirosning ijtimoiy oqibatlarini ham ochib beradi.

Tolstoy bu jarayonni keng falsafiy qoidalar asosida emas, balki individual ruhiy holatlar, ichki kurashlar va qarorlarning oqibatlarini tasvirlash orqali ifodalaydi. Shu bois Berlinning “*Tolstoy umumiy qonunlardan ko’ra, insoniy hayotning o’ziga xos haqiqatlariga qiziqdi*” degan ta’kidi to’liq o’z isbotini topadi. Anna Karenina o’quvchini universal haqiqatlar emas, balki shaxsiy hayotning murakkabligi, ehtiros va axloq o’rtasidagi doimiy ziddiyat haqida o’ylashga chorlaydi.

Tolstoyning “Anna Karenina”si haqida R. F. Christian shunday deydi: “*Anna Karenina is a novel about the conflict between individual freedom and the binding force of social morality*” (Christian R. F., 1969, 112). Bu ta’rif romanning eng markaziy masalasini ochib beradi: shaxsiy erkinlik va jamiyatning axloqiy qoidalari o’rtasidagi to’qnashuv. Anna o’z shaxsiy baxtini izlaydi, sevgiga erkinlik bilan javob beradi, biroq shu jarayonda jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me’yorlarga zid harakat qiladi. Bu qarama-qarshilik uning fojiali taqdirini belgilaydi. Shunday qilib, Tolstoy asari o’quvchiga inson hayotidagi eng murakkab muammo - erkin tanlov va ijtimoiy majburiyatning uyg’unlashishi mumkinmi, degan savolni qo’yadi.

Buyuk yozuvchi va tanqidchi Barbara Hardy Eliot va Tolstoy o’rtasidagi umumiylikni ko’rsatadi: “*Both novelists are concerned with the tension between personal passion and the claims of duty, though they resolve it in different cultural terms*” (Barbara Hardy, 1970, 54). Uning fikricha, Eliot ham, Tolstoy ham shaxsiy ehtiros va burch o’rtasidagi qarama-qarshilikni o’z romanlarining asosiy mavzusi sifatida tasvirlaydilar. Ammo ularning bu masalaga yondashuvi turlicha. Eliot “Middlemarch”da ingliz Viktoriya davri qadriyatlari asosida bu ziddiyatni ko’rsatadi, Doroti va Lidgeyt kabi qahramonlarning ichki kurashlari orqali jamiyat

va shaxsiy orzu-umidlar o'rtasidagi murakkab muvozanatni tasvirlaydi. Tolstoy esa Rossiya jamiyatining an'anaviy axloqiy me'yorlari fonida Anna va Vronskiy munosabatlarini ochib beradi.

Demak, Kristian va Hardy ta'riflari bizga ikki buyuk romannavisning ijodiy qarashlarini solishtirish imkonini beradi. Ularning romanlarida umumiylik - insoniy ehtiroslar va burch o'rtasidagi doimiy ziddiyat bo'lsa, farq esa bu masalani hal etish yo'llarida, ya'ni madaniy va ijtimoiy kontekstlarda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, Eliot va Tolstoy ijodi o'quvchini faqat bir davr yoki jamiyatning emas, balki umuminsoniy tajribaning ham ko'zgusi sifatida o'ylashga undaydi.

Har bir asari kitobxonlar qalbida chuqur iz qoldirgan buyuk rus yozuvchisi Lev Nikoyevich Tolstoyning takrorlanmas "Anna Karenina" romani 1873-1877 yillardan yozilgan, 1878-yilda esa to'liq nashr etilgan. "Anna Karenina" asari ham "Middlemarch" kabi realistik roman hisoblanib, bir nechta mavzularga bag'ishlangan. Muhabbat, xiyonat, jamiyating qat'iy axloqiy me'yorlari va insoniy his-tuyg'ularning murakkabligi asarda o'z ifodasini topgan. Ta'kidlash kerakki, ikki roman ham bir nechta liniyalarni birlashtiradi hamda ijtimoiy vaziyatlarni kengroq tasvirlaydi. Adabiyotshunos Gari Seul Morsonning yozishicha "*Like Middlemarch, Anna Karenina tells three stories, but unlike George Eliot's novel, it is named after one of them.*" – Ya'ni ikkala asarda ham ko'p syujet mavjud, biroq Tolstoy o'quvchining faqat bir hikoya chizig'i Anna Karenina hayotiga, qolgan chiziq hikoyalarini ya'ni Konstantin Levin hikoyasini asosiy hikoyaga yo'naltirgan. Birinchi chiziqda asosiy qahramon Anna o'z turmush o'rtog'i va jamiyatdan yuz o'girib Vronskiy bilan muhabbat yo'lini tanlaydi. Ammo u tanlagan yo'l unga baxt keltirmaydi va uning hayoti fojia viy voqea bilan yakun topadi. O'z navbatida, Tolstoy Konstantin Levin hikoyasida qahramon Levin orqali uning hayot falsafasi, mehnat, oila va diniy izlanishlari orqali o'z dunyoqarashini ifodalagan. Ushbu asar shaxsiy baxt va jamiyat talablari o'rtasidagi qarama qarshilikni ko'rsatib berganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari asarda XIX asr Rossiya jamiyatining axloqiy, ijtimoiy va siyosiy hayoti keng tasvirlangan bo'lib, falsafiy

jihatdan insonning hayot mazmuni, muhabbat va majburiyat o'rtasidagi ziddiyat chuqur ochib berilgan.

Ikki romandagi o'xshash jihatlar

Ushbu ikki buyuk asar bir davrda yozilgan bo'lib, o'z zamonasining buyuk realistik asarlari hisoblanadi. Kitobxon asarni o'qish davomida uning o'xshash tomonlarini osongina ilg'ab oladi. E'tiborlisi shundaki, realizm ufurib ikkala asarda ham mavjud, shuning uchun bo'lsa kerak ikkita asarda ham inson hayotining ijtimoiy, psixologik va ma'naviy tomonlari chuqur yoritilgan. Eliotcha realizmda jamiyat, ijtimoiy islohotlar va ilmiy taraqqiyot orqali odamlar hayoti va turmush tarzi ochib beriladi. Masalan, yosh iqtidor egasi sifatida ta'riflangan Doktor Lidgeyt ilm fan taraqqiyotini targ'ib qiladi, lekin uning orzulari jamiyatdagi tor tushunchalar va ayrim iqtisodiy va moliyaviy qiyinchiliklar sababli barbod bo'ladi. Ushbu realizm orqali Eliot orzu va real hayot to'qnashuvining aniq ko'rinishini ko'rsatib bergan. Tolstoy asarida esa realizmning psixologik ko'rinishi chuqur talqin qilingan. Bunga Anna Karenina obrazining ichki dunyosini tasviri yaqqol misol bo'la oladi. U oshiq bo'lgan yigit Vronskiy bilan uchrashuvdan keyin hayajon, qo'rquv va jamiyat oldidagi uyat hissini bir vaqtda boshdan kechiradi. Tolstoy inson qalbini chuqur tahlil qilar ekan bu bilan o'quvchini real his- tuyg'ular bilan yuzlashtiradi. Bundan tashqari Levin obrazi bilan Tolstoy Rossiya qishlog'ini, dehqonlarning mehnatini yorqin va haqqoniy tasvirlaydi. Levinning yerni qadrlashi va yer ustidan nazorat qilishi yoki bo'lmasam yer ishchilari bilan munosabatlarini tasvirlashi haqiqiy Rossiya hayotining real ijtimoiy qiyofasini beradi. Eliot romanida esa Angliyadagi 1832-yilgi islohotlar fon sifatida beriladi. Yozuvchi ham abstrakt realizmini emas, balki real tarixiy jarayonlarni ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda shaxs va jamiyat muammosi ikkala asarda ham chuqur talqin qilingan. "Middlemarch" asarida ingliz jamiyatining qatlamlari, "Anna Karenina"da rus aristokratiyasi ko'rsatiladi. Ikkala asarda ham shaxsiy baxt va jamiyat talablari o'rtasidagi ziddiyat asosiy markazda bo'ladi. Doroti Bruk (Middlemarch) va Anna (Anna Karenina) qahramonlari orqali ayol obrazlari har ikki yozuvchi tomonidan me'yoriga yetkazib ifodalangan. Ikkita qahramon ham o'z davrida jamiyatda mavjud bo'lgan to'qnashuvlarga to'qnashgan

hamda ushbu tuzumlarga qarshi chiqa olgan. Doroti o'zining ma'naviy orzulari bilan, Anna esa shaxsiy muhabbati bilan jamiyat qarshiligiga duch keladi. Asarlar kompozitsiyasiga e'tibor qaratsak, ikkala asar ham murakkab kompozitsiyaga ega, ko'p qahramonli bir nechta syujet chizig'i asosida yozilgan. Bu jihatdan ikkala romanga "ensiklopedik" roman deb baho bersa bo'ladi. Asarlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi o'xshash holatlar bilan birga farqli holatlarni ko'rishimiz shubhasizdir. Eliotning "Middlemarch" asarida kitobxon Lidgeyt va Doreti qahramonlarining hayoti va ularning hikoyasini juda muhim deb hisoblashadi. Bu albatta juda to'g'ri, lekin voqea-hodisalar qahramonlarning hikoyasi orqali butun jamiyat hayotini aksini beradi. Bu asar ko'proq jamiyat ko'zgusidir. "Anna Karenina" asari esa, asosan, Anna va Vronskiy atrofida qurilgan voqea-hodisalar asosida qurilgan. Shunga qaramay Tolstoy Levin qahramoni orqali falsafiy g'oyalarni ifoda etgan.

O'z navbatida ayollarning taqdirida ham farqli tafovutni ko'rishimiz mumkin. "Middlemarch"dagi Doroti qahramoni o'zining ma'naviy izlanishlarini qidiradi va o'zining hayotiy qarorlari orqali yakunda baxt topadi. Uning harchand qiyin bo'lmasin, sevgan insoni uchun hayot zarbalari va hayotiy to'qnashuvlardan g'olib bo'lganligi asar yakunida chiroyli aks etgan. Biroq Tolstoyning Annasi jamiyatning qattiq qoidalari oldida kuch topa olmaydi, shaxsiy iztiroblari orqali fojiaga uchraydi. Asar yakunida Anna o'zini yolg'iz his qiladi. Jamiyat qonun qoidalari oldida o'zini aybdor topib, ruhan kuchli azob chekadi va yakunda vafot etadi. Asarlar orasidagi yana bir katta farqlardan biri asardagi ohangdir. Eliotning "Middlemarch" asari ohang jihatdan intellektual, tahliliy va ijtimoiy falsafiydir. Aksincha Tolstoy "Anna Karenina"sida hissiy, dramatik va chuqur psixologik ohangni kuzatish mumkin.

XULOSA

Jorj Eliotning "Middlemarch" va Lev Tolstoyning *Anna Karenina* romanlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikkisi ham XIX asr realizm adabiyotining eng yirik yutuqlaridan hisoblanadi. Ikkala muallif ham jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlarni, ayol obrazining taqdiri va uning ijtimoiy hayotdagi o'rni masalasini markazga qo'ygan. Doroti Bruk va Anna

Karenina timsollari orqali yozuvchilar ayollarning orzu-intilishlari, shaxsiy erkinlik va ijtimoiy cheklovlar oʻrtasidagi keskin toʻqnashuvni badiiy jihatdan keng yoritgan.

Demak, oʻxshashliklar, asosan, realizmning umumiy tamoyillarida - hayotiylik, psixologik tahlil va jamiyatni badiiy aks ettirishda namoyon boʻlsa, farqlar mualliflarning milliy adabiy anʼanalari va dunyoqarashidan kelib chiqadi. George Eliot oʻz romanida ingliz jamiyatining demokratik islohotlar davridagi ijtimoiy qatlamlarini keng tasvirlagan boʻlsa, Lev Tolstoy rus jamiyatining axloqiy va oilaviy qadriyatlarini markaziy masalaga aylantirgan.

Shunday qilib, mazkur maqola Eliot va Tolstoy ijodidagi umumiylik va tafovutlarni aniqlash orqali ingliz va rus realizmining oʻziga xos xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi. Bu qiyosiy tadqiqot nafaqat mazkur ikki roman badiiy-estetik qiymatini chuqurroq anglashga, balki jahon romanchiligi taraqqiyotida realizmning oʻrnini belgilashga ham imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Barbara Hardy. *The Novels of George Eliot: A Study in Form*, 1970.
2. Byatt. A. *Possessional writer, give thoughts about Eliot*, 1991.
3. Carroll, D. *George Eliot: A Modern Perspective*. Oxford University Press, 1980.
4. Christian R.F. *Tolstoy: A Critical Introduction*, 1969.
5. Eliot, J. *Middlemarch*. London: Penguin Classics (Asli nashr yili 1871–1872), 2003.
6. Freeborn, R. *The Rise of the Russian Novel*. Cambridge University Press, 1982.
7. Isaiah Berlin. *The Hedgehog and the Fox*, 1978.
8. James, H. *Partial Portraits*. Macmillan, 1887.
9. Joʻraqulov, U. va boshqalar. *Qiyosiy adabiyotshunoslik*. Toshkent: Best, 2024.
10. Tolstoy, L. *Anna Karenina*. (R. Pevear va L. Volokhonsky tarjimasi). London: Penguin Classics (Asli nashr yili 1877), 2000.

REFERENCES

1. Barbara Hardy. (1970). *The Novels of George Eliot: A Study in Form*.
2. Byatt. A. (1991). *Possessional writer, give thoughts about Eliot*.
3. Carroll, D. (1980). *George Eliot: A Modern Perspective*. Oxford University Press.
4. Christian R.F. (1969). *Tolstoy: A Critical Introduction*.
5. Eliot, J. (2003). *Middlemarch*. London: Penguin Classics.
6. Freeborn, R. (1982). *The Rise of the Russian Novel*. Cambridge University Press.
7. Isaiah Berlin. (1978). *The Hedgehog and the Fox*.
8. James, H. (1887). *Partial Portraits*. Macmillan.
9. Jurakulov, U. et al. (2024). *Comparative Literary Studies*. Tashkent: Best.
10. Tolstoy, L. (2000). *Anna Karenina*. (R. Pevear va L. Volokhonsky tarjimasi). London: Penguin Classics.